

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI

*Xaitqulova Feruza Suleymanovna*

*Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 15-son davlat  
maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori*

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratilayotganligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham e'tirof etilganligini qayd etishimiz o'rinli. Farzandlarimizni ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk hamda barkamol etib tarbiyalashda ekologik tarbiyaning o'ziga xos o'rni bor. Zero, ta'lim jarayoni o'zaro uzviy bog'langan ma'naviy, iqtisodiy, psixologik, texnologik taraqqiyot ta'siriga bo'ysunadi. Bu jarayon dunyoqarashi keng, iqtidorli, erkin va sog'lom fikrlovchi shaxslarni voyaga yetkazishning bosh omilidir. Aynan sog'lom bola Vatan istiqboli uchun jonkuyar bo'ladi. Tug'ilib o'sayotgan zaminining tabiati, ota-bobolarining azaliy merosi va madaniyatini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga intiladi. Maktabgacha yoshdagi bola ong-shuurida ushbu qadriyat kurtaklarini shakllantirish, rivojlantirish, egallagan malakasini mustahkamlash, bilimni boyitish tarbiyachilardan katta mahorat talab etadi. Ekologik ta'limning ilk vazifalarini bajarishga bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarini keng qo'llash orqali erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar jalb etiladigan faoliyatlar uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilsa, maktab ta'limiga puxta zamin tayyorlanadi. Tashkilotda tashkil etiladigan tasviriy faoliyat, nutq o'stirish, matematika, badiiy adabiyot bo'yicha o'yin-mashg'ulot, sayr va kuzatuvlar, tevarak-atrof bilan tanishtirish, mehnat topshiriqlari bajarish ekologik ta'lim vazifalarini uyg'unlashtirish bolalar bilim tushunchalarining tizimli bo'lishini ta'minlaydi.

Bolalar bilan olib borilayotgan ushbu ta'lim-tarbiya ularda quyidagi malakalarning shakllanishiga yordam beradi: tinglash, jismonan rivojlanish, mustaqil harakat qilish, dadil fikrlash, badiiy-estetik saviyasini o'stirish va mas'ullikni oshirish.

Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, bolalarni tabiat bilan tanishtirish bo'yicha dastur vazifalarini to'laqonli bajarish uchun faqat atrof-muhit bilan tanishtirish mashg'ulotlarining o'zi kifoya qilmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanishi zarur bo'lgan o'quv malakalari yetarli darajada bo'lishi uchun ularning faoliyat turlarini nafaqat almashtirib turish, balki kompleks tarzda qo'llanishiga e'tibor qaratish zarur.

Tajribadan yana shuni xulosa qilish mumkinki, bolalar faoliyati qanchalik rang-barang, o'zaro farqli bo'lsa, ularning tafakkuri shunchalik faollashadi, esga tushirish, xulosa qilish va o'z fikrini izchil, dadil bayon etishga sharoit yaratiladi.

Bolalarning tabiatga oid bilim, malaka, ko'nikmalarini ularning har qanday faoliyati davomida hosil qilish, faollashtirish, mustahkamlash mumkin: jismoniy tarbiya va badantarbiya mashqlari, harakatli o'yinlar, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, matematik tasavvurlarni o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, til o'rgatish, nutq o'stirish, tajribalar o'tkazish mashg'ulotlaridan tashqari, sayr, kuzatuvlar, suhbatlar jarayonida ham bu vazifa hal etilishi mumkin va zarur. Mahallada, ko'chalarda chiqindi tashlagan kishini ko'rganda, „bu ishingiz noto'g'ri bo'ldi“, deydigan muhitni shakllantirishimiz, odamlarimizni bunga o'rgatishimiz kerak. Bu — hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir»,

Bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar, topshiriqlar bajarish, testlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Maxsus tayyorlangan tavsiya mazmuniga bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarini mujassamlashtirgan savol va topshiriqlar kiritilgan. Bu bolalar yoshi, ta'lim vazifalari, faoliyat turlarining almashib turishini nazarda tutib tayyorlandi.

#### МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI

Bolada ekologik tarbiyaning asosiy mazmuni, bu tabiat hodisalari va ob'ektlariga to'g'ri munosabatni shakllantirishdir. Buni amalga oshirish uchun bolalar tomonida tabiatni to'g'ri anglash, o'simlik va tirik rganizmlarning rivojlanishi bilan tanishtirish muhimdir. Ekologik tarbiya - insonning atrof-muxitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muxit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejabtergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga aloxida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mexnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mexnatga muxabbat, atrof-muxitga xurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish xissi sabot bilan singdirilgan.

Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni aloxida chuqurchalarga tashlash; xojatxonalarini ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash; yong'in chiqmasligi chorasini ko'rish; turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish; nixollarni sindirib, payxon qilmaslik; qushlarni uyasini buzmaslik kabi xatti-xarakatlar shakllantirilgan. Ma'lumki, inson aqli uning umumiy rivojlanishning dastlabki 3-4 yilida 50% , 4-8 yilida 30% , 8-17 yilda esa 20% ni tashqil qiladi. Shuni xisobga olib, ekologik ta'lim-tarbiyani; asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasining asosiy vazifalari:

- Bolalar ongida atrofimizdagi olam haqida ilk tushunchalarni shakllantirish, tabiat va inson uzviy bog'liqligini hamda bolalarda ekologik ong va ekologik tarbiyani shakllantirish.

- Bizni o'rab turgan tabiatga nisbatan his-tuyg'ularni shakllantirish.

- Atrof muhitni asrash buyicha olib boriladigan amaliy va ijodiy faoliyatni rivojlantirish.

- Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun maktabgacha bo'lgan ekologik tarbiyani asosiy printsiplari – insonparvarlik, inregratsiya, ilmiylik kabi jihatlarini aniqlab olish kerak bo'ladi.

Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarning ekologik tarbiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Tabiatga nisbatan oqilona munosabatlarni shakllantirish.(ma'naviy tarbiya)

- Ekologik bilimlar va tasavvurlar tizimini shakllantirish.(intelektual yoki aqliy rivojlanish)

- Estetik hissiyotlarni rivojlantirish (Tabiat go'zalligini anglash va ko'rish, hayratlanish, uni saqlash).

- Bolalarda yoshiga mos ravishda o'simlik va hayvonlarni parvarishlash, tabiatni qo'riqlash va himoya qilish hohish istaklarni shakllantirish.

□

- " Tabiatni o'rganish “ o`yini.

Bu o'yin mashg'ulot shu vaqtga qadar rasmlil tarzda o'tkazilar edi. Biz sizga rasmsiz variantini tavsiya etmoqchimiz. Bu o'yin ham bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga va o'simlik hayvonlarni nomlarini, qaysi guruhlarga mansubligini o'rganishga samarali yordam beradi . O'yin sharti quyidagicha: tarbiyachi bolaga bir guruhga mansub bo'lgan uchta yoki to'rtta narsa nomini aytiladi. Bola ularning umumiy nomini aytishi kerak. Masalan: Tarbiyachi: ot, qo'y, sigir, buzoq so'zlarini aytsa, bola esa: ot, qo'y, sigir, buzoq - uy hayvonlari deb umumiy nomini aytadi. Tarvuz, qovun, handalak - poliz mahsulotlari . Olma, uzum, shaftoli, anor - mevalar

- "Avval nima bo'lgan edi?" o`yini.

Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan: jo'ja (tuxum), ot (toychoq), kapalak - (qurt) kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug'doy , stol - yog'och - daraxt - urug', ko'ylak - mato - ip - paxta - chigit .

" Taqqoslash" o`yini.

Bu o'yin mashg'ulotda bolalarda ikkita bir - biriga o'xshash narsalar beriladi va ularning o'rtasidagi farqlarni topish topshiriladi. Bolalar ularni taqqoslab ko'rishlari va farqini aytishlari kerak. Masalan: suv va tuproq. Bu topshiriqni bajarishda "VENN" diagrammasi va "T" sxemasidan foydalanishni tavsiya etamiz.



## Umumiy belgi

## Suv tuproq

- rangsiz qora, kulrang
- ariqda oqadi ishlov beriladi
- daryoda oqadi sug`oriladi
- baliqlar yashaydi oziq mahsulotlari yetishtiriladi
- yomg`ir, qor o`simliklar o`sadi

## O`yin : “Sehrli poyezd»

• Maqsad : turli xil sinflar(yirtqich xayvonlar, qushlar, sudralib yuruvchilar va x.k.z)ga mansub hayvonlarni ajrata olish xususiyatini rivojlantirish va muhofaza talablarini o`rganish.

• Bola: poyezd oldida turli xil xayvonlar rasmlari tushirilgan kartochkalar turibdi. Bu xayvonlar poyezd yo`lovchilari. Uarni vagonlarga joylashtirish lozim. Birinchi vagon-yirtqich xayvonlar, ikkinchi vagonqushlar, uchinchi vagon-sudralib yuruvchilar, to`rtinchi vagonxasharotlar. 4 nafar bola o`ynaydi

## O`yin “Xatoni top”

• Maqsad: e`tiborni rivojlantirish, kuzatuvchanlik. Xayvonlar yashash muhiti to`g`risida bilimlarga ega bo`lish.

• Bola: bolalarga turli xayvonlar rasmi va yashash muxiti tasviri ko`rsatiladi(masalan o`rmon) Bolalar ushbu yashash muxitida yashay olmaydigan xayvonni ajratib,uning muhitini tasvirlashlari lozim.

## O`yin “Kim uchib ketadi, kim qoladi?”

• Maqsad : bolalarning qishlovchi va ko`chib ketuvchi qushlar haqida bilimlarini mustahkamlash.

• Bola : Bolalar oldida qish hamda yoz peyzajlari hamda turli xil qushlar tasvirlangan rasmlar turibdi. Tarbiyachi qishlovchi qushlarni qish peyzajidagi rasmga, ko`chib ketuvchi qushlarni esa yoz peyzajidagi rasmga joylashtirib chiqishni taklif etadi.

## Ekologik topishmoqlar

Kuyi doim taqir-tuqur

Qayda ko`rsa ilon cho`qur.

( laylak )

Ola-qamchi uradi

Chumchuqlarni qiradi.

( ilon )

Baroq junli qiltiq mo`ylov, Sichqon poylar, qilar ov.

( mushuk )

Yo'l-yo'l to'ni bor, odam qo'r qar turqi bor (yo'lbars)



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari” P.S.Sultonov Toshkent 2017.
2. “Umumiy ekologiya” A.Ergashev Toshkent 2003.
3. “Ekologiya” A.To`xtayev Toshkent 1998.
4. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/156-ekologiya>